



Farg'ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-aprel)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 5 997,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 98,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining asosiy omili bo'lib, tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 250,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat – 95,4% ga, elektr va gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 139,7 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 202,0 % ga o'sishi hisoblanadi.

5997,6 mlrd.so'm

98,5 %

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi**
- sanoat ishlab chiqarish indeksi**

14,0 %

- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur`ati**

32,2 %

- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**


31,5 %

- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



2020-yil yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda, jami sanoatdagi ulushi



Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 72,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ni tashkil etdi.

Tog`-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajmi indeksi - 85,5 % ni tashkil qildi.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5438,3 mldr. so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,7 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog`ining hajmi - 11,8 mldr.so`mni (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi-0,2%), o`rta yuqori texnologiyali – 855,5 mldr.so`mni (15,7 %), o`rta quyi texnologiyali – 1771,6 mldr. so`mni (32,6%) va quyi texnologiyali – 2799,3 mldr.so`mni,(51,5%) tashkil etdi.

Yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

Yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi- 11,8 mldr. so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi- 0,2%

O`rta yuqori texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 855,5 mldr.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi- 15,7 %

O`rta quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 1771,6 mldr.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi- 32,6 %

Quyi texnologiyali tarmog`i ishlab chiqarish hajmi - 2799,3 mldr.so`m, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi- 51,5%



davomi

O'z navbatida, sanoatning mazkur tarmog'ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmidagi ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 % ga, mebel ishlab chiqarish 0,8 % ga, kiyim ishlab chiqarish 0,2 % ga, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari) ishlab chiqarish 0,2% ga, koks va neftni qayta ishslash maxsulotlari ishlab chiqarish 1,1 % ga oshganligini, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa 4,1 % ga, teri va unga tegishli maxsulotlar ishlab chiqarish 0,5 % ga, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish 0,9 % ga pasayganligini kuzatish mumkin.

2020-yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur`ati, foizda
-------------------------------	---	-------------------------------	------------------------

Avtomobil benzini (ming tonna)

93,6



95,4

101,9



Dizel yoqilg'isi (ming tonna)

98,1



124,4

126,8



FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

2019-yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur`ati, foizda
<i>Uzum vinosi (ming litr)</i>			
559		698	124,9 
<i>Neft bitumi (ming tonna)</i>			
16,3		4,0	24,5 
<i>Paxta chigit (tonna)</i>			
53584,8		36887,3	68,8 
<i>Superfosfatlar (ming P2O5 tonna)</i>			
9,0		1,7	18,4 
<i>Shisha idishlar (ming dona)</i>			
41398		18736	45,3 
<i>Gerbitsidlar (tonna)</i>			
1902,4		820,0	43,1 



Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 421,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,0 % ni) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi 139,7 % ni tashkil etdi.



Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 65,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajmi indeksi 202,0 % ni tashkil etdi.






2020-yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1928,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 14,0 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 32,2 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari (%)






Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmi

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Farg`ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 38,0 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 15,1% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,6% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 4,5% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 11,2 % ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,1% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,2% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,0 % ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,6% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Bag`dod tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 3,6% ulushini), Oltiariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,3% ulushini), Farg`ona tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,1% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,2% ulushini), Uchko`prik tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,0% ulushini), Qo`shtepa tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0 % ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,6% ulushini), So`x tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,3% ulushini), Furqat tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 0,6% ulushini) xissasiga to`g`ri kelmoqda.



2020-yilning yanvar-aprel oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va ulushi (mlrd. so'm, %)






Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 353,9 mlrd. so`m, Qo`qon shahar 406,2 mlrd. so`m, Quvasoy shahar 101,9 mlrd. so`m, Marg`ilon shahar 152,5 mlrd. so`m, Toshloq tumani 103,2 mlrd. so`m, Dang`ara tumani 62,5 mlrd. so`m, O`zbekiston tumani 80,5 mlrd. so`m, Quva tumani 72,7 mlrd. so`m, Buvayda tumani 44,6 mlrd. so`m, Beshariq tumani 87,8 mlrd. so`m, Bog`dod tumani 81,8 mlrd. so`m, Oltiariq tumani 72,8 mlrd. so`m, Farg`ona tumani 57,5 mlrd. so`m, Rishton tumani 71,1 mlrd. so`m, Yozyovon tumani 30,5 mlrd. so`m, Qo`shtepa tumani 46,0 mlrd. so`m, So`x tumani 14,3 mlrd. so`m, Uchko`prik tumani 68,0 mlrd. so`m, Furqat tumani 21,1 mlrd. so`mga, to`g`ri keldi.

Shahar va tumanlarning iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va ulushi, %





Farg`ona viloyatining 2020-yilning yanvar-aprel oylarida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi


№	Shaharlar va tumanlar nomi	2020-yil yanvar-aprel chiqarilishi		2020-yil yanvar-aprel aholi jon boshiga	2020-yil yanvar-aprel xalq iste`mol tovarlari		2020-yil yanvar-aprel aholi jon boshiga
		mlrd.so`m	ulushi, %		ming.so`m	mlrd.so`m	
1	Oltiariq t.	76,6	1,3	363,2	72,8	3,8	345,2
2	Qo`shtepa t.	62,5	1,0	329,6	46,0	2,4	242,6
3	Bog`dod t.	213,8	3,6	995,3	81,8	4,2	380,8
4	Buvayda t.	95,5	1,6	420,3	44,6	2,3	196,3
5	Beshariq t.	120,9	2,0	531,2	87,8	4,5	385,8
6	Quva t.	185,7	3,1	721,2	72,7	3,8	282,3
7	Uchko`prik t.	299,0	5,0	1312,6	68,0	3,5	298,5
8	Rishton t.	75,0	1,2	372,4	71,1	4,2	353,0
9	So`x t.	18,1	0,3	232,6	14,3	0,9	183,8
10	Toshloq t.	671,5	11,2	3332,5	103,2	5,3	512,2
11	O`zbekiston t.	177,8	3,0	746,4	80,5	4,2	338,0
12	Farg`ona t.	64,7	1,1	304,5	57,5	3,0	270,6
13	Dang`ara t.	130,3	2,2	752,7	62,5	3,2	361,1
14	Furqat t.	35,8	0,6	304,7	21,1	1,1	179,6
15	Yozyovon t.	36,0	0,6	326,7	30,5	1,9	276,8
16	Farg`ona sh.	2 281,7	38,0	7884,2	353,9	17,4	1222,9
17	Qo`qon sh.	903,1	15,1	9011,5	406,2	21,1	1604,3
18	Quvasoy sh.	276,4	4,6	9669,2	101,9	5,3	1091,0
19	Marg`ilon sh.	273,2	4,5	1174,2	152,5	7,9	647,8
Viloyat bo`yicha		5 997,6	100,0	1595,5	1 928,9	100,0	513,1



Sanoat ishlab ciqarishda kichik biznesning ulushi

Kichik tadbirdorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 31,5% tashkil etmoqda.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo`yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %





Viloyatda sanoat korxonalarining mahalliylashtirish darajasi

2020 yilda viloyat bo'yicha 53 ta korxona mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan bo'lib ulardan 44 tasi mahalliy korxonalar hisoblanib, bu korxonalar tomonidan 77 loyihalar dasturga kiritilgan. Joriy yilning yanvar-aprel oylarida 53 ta korxonadan 48 tasi mahalliylashtirishni amalga oshirgan va ular tomonidan 70 ta loyiha bo'yicha maxsulot ishlab chiqarilgan. Joriy yilning yanvar-mart oylarida korxonalar tomonidan taqdim etilgan hisobotlarga ko'ra 171,8 mlrd. so'mlik maxsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 946,6 ming AQSh dollari miqdorida eksport amalga oshirilgan.

№	Hudud nomi	Loyiha miqdori		Korhona soni		Ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm)	Export hajmi (mln.AQSH doll.)	Yangi yaratilgan ish o'rni
		kutilish	amalda	kutilish	amalda			
	Viloyat jami:	77	70	53	48	171,8	0,946	130
<i>shaharlar:</i>								
1	Farg'ona	15	12	8	7	11,7	0,3	3
2	Qo'qon	5	4	5	4	47,8	0,1	-
3	Quvasoy	3	3	3	3	37,8	0,1	10
4	Marg'ilon	5	4	5	4	11,6	0,1	25
<i>tumanlar:</i>								
5	Oltiariq t	1	1	1	1	0,01	-	
6	Qo'shtrpa t	4	4	4	4	0,3		15
7	Bag'dod t	1	1	1	1	0,6	-	
8	Buvayda t	2	2	2	2	1,3	-	
9	Beshariq t	1	1	1	1	0,03		5
10	Quva t	16	16	1	1	0,18	-	
11	Uchko'prik t	8	7	7	6	50,0	0,2	56
12	Rishton t	1	1	1	1	0,1	-	
13	Toshloq t	2	2	2	2	1,9	-	
14	O'zbekiston t	2	2	2	2	0,2		2
15	Farg'ona t	4	4	3	3	1,7		4
16	Dang'ara t	6	6	6	6	6,6	0,1	10
17	Yozyovon t	1	0	1	0	0	-	



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7782 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1342 tasi Qo`qon shahri, 952 tasi Farg`ona shahri, 927 tasi Marg`ilon shahri, 212 tasi Quvasoy shahri, 563 tasi Uchko`prik tumani, 450 tasi O`zbekiston tumani, 396 tasi Dang`ara tumani, 402 tasi Buvayda tumani, 353 tasi Quva tumani, 311 tasi Toshloq tumani, 284 tasi Oltiariq tumani, 281 tasi Bog`dod tumani, 265 tasi Rishton tumani, 220 tasi Qo`shtepa tumani, 205 tasi Farg`ona tumani, 155 tasi Furqat tumani, 160 tasi Yozyovon tumani, 160 tasi Beshariq tumani, 144 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.


Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 389 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 33 tasi Farg`ona shahri, 41 tasi Qo`qon shahri, 41 tasi Marg`ilon shahri, 13 tasi Quvasoy shahri, 27 tasi Quva tumani, 25 tasi Uchko`prik tumani, 24 tasi Buvayda tumani, 19 tasi O`zbekiston tumani, 21 tasi Oltiariq tumani, 26 tasi Rishton tumani, 12 tasi Dang`ara tumani, 17 tasi Farg`ona tumani, 19 tasi Bog`dod tumani, 16 tasi Toshloq tumani, 11 tasi Qo`shtepa tumani, 20 tasi Beshariq tumani, 12 tasi Yozyovon tumani, 7 tasi So`x tuman, 5 tasi Furqat tumaniga to`g`ri keladi.



FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan hamda 2020 yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni



Farg'ona viloyat statistika
boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo`limi

Nashr uchun mas'ul:

Sh.Zokirov

Aloqa telefoni:

73 -249-87-19